

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## SOBIR O‘NAR ASARLARINING PARANORMAL JIHATLARI

Saydazimova Sanobar

*Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktorant*

*Toshkent, O‘zbekiston*

[saidazimova2595@gmail.com](mailto:saidazimova2595@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek yozuvchisi Sobir O‘nar ijodidagi paranormal jihatlar tahlil qilingan. Adib asarlarida xalq og‘zaki ijodidan olingan demonologik personajlar, g‘ayritabiiy hodisalar va mistik syujetlar o‘ziga xos badiiy usulda aks etadi. Xususan, “Safura xolamning ertagi” va “Chambilbelning oydalasi” asarlarida bashoratlar, klinik o‘lim va metamorfoza orqali insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari tasvirlanadi. Maqola Sobir O‘narning o‘ziga xos badiiy mahorati va mistik unsurlarni milliy adabiyotimizda ifoda etishdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.

**Kalit so‘zlar:** paranormal epizodlar, demonologik personajlar, mistik tasvir, metamorfoza, klinik o‘lim, evrilish.

**Abstract:** This article analyzes the paranormal aspects of the work of the Uzbek writer Sabir Onar. In the works of the writer, demonological characters, supernatural events and mystical plots taken from folklore are reflected in a unique artistic way. In particular, the works "The Tale of Aunt Safura" and "Chambilbel's Mirror" describe the inner experiences and mental anguish of a person through predictions, clinical death and metamorphosis. The article shows the unique artistic skill of Sabir Onar and his place in the expression of mystical elements in our national literature.

**Key words:** paranormal episodes, demonological characters, mystical image, metamorphosis, clinical death, evolution.

O‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri-yozuvchi Sobir O‘nar nasrdagi ijodiy mahorati bilan minglab kitobxonlar qalbiga kirib bordi. Yozuvchi asosan qissa va hikoyalarda sodda va samimiy insonlar qiyofasi chizgilari ila ularning quvonch va qayg‘usini, g‘am tashvishini o‘zgalarga yuqtira oldi. Adib ijodini varaqlar ekanmiz, asarlar tili va uslubi, tasvirlangan ijtimoiy muhit, qahramonlar xarakteri va o‘ziga xosligidan, umuman olganda asarlarida keltirilgan har bir detaldan Qo‘shrabot taftini his qilamiz. Yozuvchi asarlaridan ruh orom oladi, qalbimizda uzuq-yuluq xotiralar uyg‘onadi, o‘zimizga o‘zligimizga qaytamiz, qahramonlardan o‘zimizni-da topamiz. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaganlaridek: “U sizning, bizning o‘zbekning ko‘ngliga go‘zal ezgulikni olib kelgan odam edi. Sobirni tanimoq o‘zingizni tanimoq, Xudoni tanimoq bo‘ladi.” [1]

Sobir O‘nar adabiyotga “Orzuga to‘la qishloq” nomli ilk hikoyalar to‘plami bilan kirib keldi. Shundan keyin yozuvchining bir qator qissa va hikoyalar to‘plamlari e‘lon qilindi. Jumladan, “Ovloq adirlar bag‘rida”, “Chashma”, “Inqilob kechasi”, “Dunyo shundoq tururmi?”, “Bibisora”, “Chambilbelning oydalasi”, “Kunsuluvning sirli xatlari” kabi qissa va hikoyalar, “Oldinda yongan mayoq” nomli maqola va esselar vafotidan keyin 2024-yilda “Tanlangan asarlar” to‘plami chop etilgan.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

“Dunyo shundoq tururmi?” va “Bibisora” qissalari tez orada adabiy jamoatchilik e’tiboriga tushgan.

Sobir O‘nar asarlari misoli toshqin daryodek mavjlanadi. Biz shu daryoning bir irmog‘idan suv ichmoqlikni niyat qildik va adib asarlarining paranormal jihatlarini tahlilga tortdik.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mifologiya, ilohiy haqiqatlar, maishiy turmush tarzida doimo duch kelinadigan g‘ayritabiiy voqealar, sirli karomatlar, mavhum hodisotlar, shuningdek, jin, ajina, iblis, shayton, oziqchi, alvasti, olabo‘ji, arvoh, pari, dev, yovuz ruhlar kabi tashqi olam kuchlari azal-azaldan badiiy adabiyotga ko‘chgan va bu tushuncha sifatida ilmiy atama bilan izohlanmagan. Yuqorida sanalgan tashqi kuchlar folklorshunoslikda demonologik personajlar deya atalagan. Bizning fikrimizcha, demonologik personaj atamasi tor ma’noda obrazlarni qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan badiiy asarlardagi noodatiy sujet va voqealar, g‘ayritabiiy karomatlar hamda demonologik personajlar bilan bog‘liq hodisalarni umumlashtirib “paranormal epizod” istilohini ilk bora qo‘llaymiz va zamonaviy o‘zbek nasridagi, jumladan qissalardagi talqini, tavsifi, badiiy vazifasini tahlilga tortamiz.

“Paranormal epizodlar” real hayotiy asosga ega. Zotan islom dinining muqaddas manbasi Qur’oni Karimga “Jin” surasi nozil qilingan. “Qur’oni Karim”da jinlar haqida o‘nta surada qirqqa yaqin oyat bor. Alloh taolo “Rahmon” surasida: “Insonni sopolga o‘xshash qurigan loydan yaratdi. Va jinlarni o‘t-alangadan yaratdi”, degan (14-15-oyatlar).[4:10-11-bet]. Jinlar haqiqatda bor mavjudotlar bo‘lib, asli olovdan yaratilgandir. Jin so‘zining lug‘aviy ma’nosi esa “to‘silgan”, ya’ni, odamlar ko‘zidan to‘silgan narsa. Shu sababli ham u insonlarga ko‘rinmaydi, ammo ular o‘zlari ko‘rinmay turib, bizlarni va boshqa narsalarni ko‘rishlari mumkin.

Hayotiy tajribalar va badiiy adabiyot namunalari misolida kuzatishlarimizdan ma’lumki, “paranormal epizodlar” real hayotiy obrazlarga xavf-xatar yetkazishga urinishadi. Ular vaziyat taqozosi ko‘ra o‘z tashqi ko‘rinishlarini o‘zgartirishlari, ya’ni boshqa narsa yoki jonzotlarga evrilishlari (metamorfoza) mumkin. Bunday evrilishlar asosan real hayotiy personajlarning “paranormal epizodlar”ni sezib qolishlari va o‘zini himoya qilish tadorigiga tushishlari bilan boshlanadi. Misol sifatida biron kishi jin yoki yovuz kuchlarga yo‘liqib qolsa, azoyi badani titrab, eti junjikadi va ongini qo‘rquv hissi egallaydi. Shu onda u xalq orasida keng tarqalgan ins-jinlarni haydash va ular ta’qibidan xalos bo‘lish uchun “Qur’oni Karim”ning tabarruk suralari va kalimalariga murojaat etadi. Bu usul va vositalardan keyin “paranormal epizodlar” tezlikda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishadi yoki o‘z qiyofalarini o‘zgartirishadi. Aynan shu holat evrilish (metamorfoza)ga misol bo‘ladi. Evrilish natijasida “paranormal

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

epizodlar” it, mushuk, olov, gul, qo‘y, echki yoki boshqa narsalarga aylanishlari mumkin. Ba’zi holatlarda esa “paranormal epizodlar” real hayotiy shaxslarning ichiga kirib olib, kelajak hayotlaridan bashorat qilishadi yoki jismiga zarar yetkazishadi. Jumladan, Sobir O‘nar qalamiga mansub “Safura xolaning ertagi” hikoyasida ichiga it kirib olgan qahramon hayoti tasvirlanadi. Asar Safura xolaning jiyani tilidan hikoya qilinadi. Hikoya xronotopi jiyanning ulg‘ayib, hayotning og‘ir judolik va sinovlarini achchiq-chuchugini totgan insonning xulosalari bilan boshlanadi. Asar qahramoni Safura ayni yoshligining eng kamolot chog‘ida bevaqt hayotdan ko‘z yumgan, o‘z ajalining vaqt-soatini oldindan bilar edi: “-Mening ichimda it bor opa. Bir vaqt Nonber otaning qo‘yindisi qoshidan kechqurun o‘tayotganimda kuchuk quvgan, yetib olib ichimga kirib ketgan. Shu it menga har doim baxtsizligimni aytib turadi”. [3:419-bet] Ammo atrofdagilar uning gaplariga e’tibor berishmaydi va bolalik hayollariga yo‘yishadi. Go‘yoki Safurani “hushi ham tushiga o‘xshar edi”. [3:420-bet].

Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov hikoya mistik xususiyatga ega ekanligini ta’kidlab, quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: “Sobir O‘nar hikoyasi badiiy rostgo‘ylik mezoniga qo‘yiladigan bo‘lsa, faqat bolaning xos mistik tasavvuri diapozonidagina o‘zini oqlashi mumkin. Asardagi Safura xola, ota-ona va bola to‘rtligi qondoshlik tizimidagi xarakterlar chambaragini hosil qilgani esa hikoyaning muhim yutug‘i bo‘la oladi”. [4:262-bet] Hikoyada paranormallik kasb etgan jihatlar bola tasavvurida va Safura tilidan aytilgan bashorotlarda o‘z aksini topadi. Masalan, o‘zining ajali 71 kundan so‘ng kelishi, o‘sha vaqtgacha yana bir kishi vafot etishi, shuningdek, ba‘zan uni bir kampir poylab turishi va yangi ko‘ylak sovg‘a qilgani haqida opasiga gapirib beradi. Adib hikoyasida sirlilik va mavhumlik bor. Bu sirlilik bir qancha savollarni paydo qiladi? Asar qahramoni kelajak hayoti haqida qayerdan bilgan? Gohida ko‘ziga ko‘rinadigan kampir real hayotiy shaxsmi yoki yovuz kuchlarmi? Ichiga kirib olgan it qizning hayoliy tasavvurimi? Bevaqt o‘limga kasallik yoki ins-jinslar sababmi? Bu mavhumlik va sirlilik asarning bayon etish usuliga, asar uslubiga va hikoyaning bosh g‘oyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Har bir yaratilgan asar xoh roman bo‘lsin, xoh qissa, xoh hikoya o‘sha davr muhitining in’ikosini, muammolarini, ijtimoiy kayfiyatini aks ettiradi. Ammo so‘nggi yillarda yozilgan asarlarda yangi iqlim va yangi nafas ifori seziladi. Adabiyot zohirdan botinga, jamiyatdan inson qalbiga kirayotgandek, kishi ruhiyatidagi o‘zgarishlarni taftish qilayotgandek, go‘yo. Shu bilan bir qatorda jahon adabiyotidagi ayrim unsurlar o‘zbek adabiyotida jumladan yuqoridagi hikoyada ham bo‘y ko‘rsatmoqda. “Chunki bu tur hikoyalar reallik bilan odamlar orasida yurguvchi

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

xurofiy tushunchalar qorishib ketgan, muqim bir e’tiqodiy tayanch bo‘lmagan muhitdagi fikr-qarashlar asosiga quriladi. Inson psixologiyasiga ko‘ra, umuman mistikaga moyillik tushkun ruhiyatdan, umidsizlik kayfiyatidan kelib chiqadi. Agar bu holat ommaviy qamrov olsa, dastlab adabiyot, keyin-keyin falsafa va barcha ijtimoiy jarayonlar atmosferasiga ham ta’sir etadi. Albatta, biz bugun mistik asarlar sifatida tasnif etgan o‘zbek hikoyalarini umumjamiyat kayfiyatining emas, balki jahon madaniy bo‘hronidagi ommaviy kayfiyatning ta’siri sifatida qabul qilish to‘g‘riroq bo‘ladi”. [4:262-bet]

Sobir O‘narning “Chambilbelning oydalasi” qissasida ham “paranormal epizodlar” uchraydi. Bu asarida muallif 2 ta sujet ipini bir o‘zanda birlashtiradi. Otaqul Qirg‘iy va zamonaviy “Go‘ro‘g‘li” obrazi bir-biriga yondosh tarzda va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi an‘analaridan ilhomlanib “Go‘ro‘g‘li” dostoni voqealarini bugungi kun bilan bog‘laydi. “Sobir O‘nar asarlarida milliylik, kolorit, juda tabiiy yo‘sinda ifodalanadi. Xoh hikoya, xoh qissada bo‘lsin, u bir qizil chiziq – leymotivni topib oladi. Uzoqlarga o‘tlab uloqib ketmaydi,” [5:301-bet] -deya ta’kidlagan edi alloma shoir Abdulla Oripov. Aynan ushbu fikrlar “Chambilbelning oydalasi” qissasida folklor motivlari, xalq tilidagi ayrim jihatlar, azaliy qadriyatlar, milliylik va or-nomus, oriyat tuyg‘ularining tarannum etilishida ko‘rinadi.

“Chambilbelning oydalasi” qissasining paranormallik jihatlari asar qahramonining vafot etib, so‘ngra qayta tirilishi, ya’ni klinik o‘limni boshidan o‘tkazishi va vafot etgandan keyingi kechinmalar va hissiyotlar tasviri fonida ko‘rinadi. Yozuvchu ushbu asari haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Bu hayot haqiqatiga to‘g‘ri keladimi-yo‘qmi, bilmayman, biroq yozuvchi sifatida ishontirishga harakat qildim”.[6] Ruh o‘z tanasidan ozodlikka chiqib, o‘zga olamdan o‘z hayotini taftish qiladi, yaqinlarining dard va iztiroblarini, do‘sti deb bilgan insonning sotqin ekanligini anglaydi. “...bu sergap dunyodan og‘ir zil-zambil oyog‘imni uzib olgan, erkin, shamolday yengil bir narsa, balki ruh edim, tez kechgan voqealar, kuzatish, his-o‘ylar jarayonida “Men endi ruh bo‘lsam kerag-a...”[3:20-bet] kabi fikrlar asar qahramoni tilidan aytiladi. Bu qissaning tag zamirida dunyoning naqadar tor, shu o‘rinda keng ekanligi Otaqul Qirg‘iyning izsiz g‘oyib bo‘lib, kimsasiz sahroda asirda ushlab turilgani va vafot etib qayta tirilgan qahramonning ham shu sahroga borib qolganligida ko‘rinadi. Odamlar nazdida ikkalasi ham bu dunyoni tark etgan, o‘zlari ham odamlar yoniga borib “men tirikman” deya olishmas edi. Otaqul Qirg‘iy bir umr “ot ustida yurgan”, elning oqsoqoli bo‘lgan martabali inson sifatida xalq oldiga qaytib borishdan bedarak ketishni afzal biladi. Sababi u kabi insonlarda oriyat va g‘urur kabi tuyg‘ular jonidan-da azizroqdir.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Xulosa qilib aytganda, Sobir O‘nar asarlarida inson ruhiyati, xalq og‘zaki ijodidan olingan sujetlar va mistik unsurlarni badiiy asarlarning asosiy qismiga aylantirgan. Uning asarlarida xalq og‘zaki ijodidagi mifologik obrazlar, demonologik personajlar va g‘ayritabiiy hodisalar yorqin tasvirlanadi. Xususan, “Safura xolamning ertagi” hikoyasida hayoliy it obrazi, bashoratlar va o‘limni oldindan sezish kabi paranormal hodisalar orqali insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari ifoda etilgan. Yozuvchi bunday hodisalarni tasvirlashda real hayot va mavhumlikni birlashtiradi, mistik elementlar orqali inson psixologiyasini chuqur tadqiq qiladi.

Sobir O‘nar asarlarining yana bir muhim jihati - ularda o‘zbek xalqiga xos etnik va diniy tushunchalar bilan bog‘liq paranormal hodisalarni badiiy usulda ochib berishidir. “Chambilbelning oydalasi” qissasidagi klinik o‘lim tasviri, ruhning boshqa dunyodagi sayohati orqali inson hayotining tor va keng ma’nolarini chuqur tahlil qiladi. Adibning bu asarlarida mistik va diniy unsurlar real voqealarga yondoshib, ularni zamonaviy talqin bilan bog‘laydi, shuningdek, asarlarida milliylik va xalq ruhiyatini tasvirlash bilan birga, inson ruhiyati va taqdiri haqida chuqur o‘ylar ifoda etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Adib tavalludining 60 yilligida so‘zlagan nutqidan. 2024-yil. Samarqand.
2. Шайх Мухаммад Юсуф Мухаммад Содик. Тафсири Хилол. 6-жуз Тошкент -2008. 10-11-бетлар
3. Собир Ўнар. Танланган асарлар. Қиссалар ва ҳикоялар. Саҳҳоф 2024.
4. Узок Жўракулов Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп (Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар) Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2015 262-бет
5. 5. Ўнар С. Бибисора. Тошкент. Ўзбекистон. 2011. – Б 301.
6. <https://zarnews.uz/uz/post/sobir-onar-adabiyotda-yangi-mavzu-yoq-faqat-mahorat-bor>
7. Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Т.: “Фан”, 2006. 155 – Б.
8. Собир Ўнар. Кунсулуннинг сирли хатлари. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2021